

Aloqa infratuzilmasining rivojlanishi

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu iqtisodiy o'sish mexanizmi, hamda boshqa sohalarda iqtisodiy jarayonlarni sezilarli darajada o'zgartirib va intellektual inson mehnat mahsuloti, ma'lumotlaridan foydalanish va bilimlarga asoslangan yangi turdagi iqtisodiyotni shakllantirishga ta'sir ko'rsatishni davom etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri, tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'li bilan milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibida tub o'zgarishlarni, birinchi navbatda zamonaviy yuqori texnologiyali xizmatlar, shuningdek, yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va diversifikatsiya qilish, iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada, boshqaruv tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish.

O'zbekistonda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, hayotning barcha javxalarida innovatsion usullar bilan bog'liq bo'lgan yuksak salohiyatli loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda.

Bugungi kunda respublikamiz AKT sohasidagi eng jadal rivojlanayotgan mamlakat sifatida tan olingan. 2017 yilda Halqaro elektraloqa ittifoqi ("Axborot jamiyati o'lchovi") ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yil bilan taqqoslanganda mamlakatimiz AKTni rivojlanish indeksi bo'yicha sakkiz

pog`onaga ko'tarilib, 95 o'rinni egalladi.

2016 yilda respublika YaIMda AKT sektorining ulushi 2,6 % ni tashkil etdi. AKT tarkibida yuqori ulush xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi.


YaIM da AKT ning ulushi,%



Iqtisodiyotda aloqa va axborotlashtirishning ulushi telekommunikatsiya tarmog`iga aholining texnik imkoniyatlarini ta'minlash, ularning asosida sifatli xizmat ko'rsatish, raqamli telefon aloqa va televidenie tizimlarga to'liq o'tish orqali erishiladi.


“Axborot va aloqa” iqtisodiy faoliyatning bir turi sifatida O'zbekiston Respublikasi YaIMning 2,5 % ni tashkil etadi.

YalM da “Axborot va aloqa” faoliyatining ulushi,%



2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra “Axborot va aloqa” faoliyatida 6,4 ming korxonalar va tashkilotlar (dehqon va fermer ho'jaliklaridan tashqari) jalb qilingan. Quyidagi faoliyat turi bilan band bo'lganlar soni 64,3 ming kishiga teng.

“Axborot va aloqa” sohasi xodimlarning bandligi dinamikasi, ming, kishi



*) Dastlabki ma'lumotlar

Hozirgi vaqtda respublikada aloqa xizmatlariga, moliya xizmatlari, transport, savdo va ovqatlanish xizmatlari bilan bir qatorda talab katta. Bugun O'zbekiston ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yangi ufqlarga ishonch bilan qadam bosmoqda.

Barcha magistral, hududiy va interstaktik aloqa turlarida tolali-optik liniyalari ko'llaniladi, bu zamonaviy kengpolosali texnologiyalarning telekommunikatsiya tizimiga kirishning natijasi hisoblanadi. Bunday aloqa liniyalarining qamrov zonasini kengaytirish bozorda taqdim etilayotgan AKT-xizmatlarining doirasini kengaytirish, videotelefoniya servisi, Internet-televideenie, yuqori tezlikdagi internet, ND-kanallarni efirga uzatish bo'yicha xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, bugungi kunda rivojlanish darajasi bizning zamon talablariga javob beradigan, hamma shaharlararo va halqaro miqyosida, shuningdek, mahalliy telefon stansiyalarida raqamli texnologiyalar joriy etildi, telekommunikatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilindi. Internetga kirish kanallari tubdan kengaytirildi. Bu, o'z navbatida, so'nggi besh yil davomida operatorlar va provayderlar tomonidan taqdim etilgan kanallar narxini olti barobarga kamayishiga imkon berdi.


AKTdan faol foydalanish keng tarqalgan, uskunalar va texnologiya infratuzilmasining eng yangi turlari bilan jixozlangan, yuqori kadrlar potentsiali bilan asoslangan. Bu ish insonlarning turmush darajasini sifatini yaxshilashga asoslangan, ularning kundalik hayotini yaxshilash, davlat boshqaruvida eng yangi texnologiyalardan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

2017 yilda aloqa xizmatlari hajmi 7168,1 mlrd.so'mni tashkil etib, 2016 yilga nisbatan 28,5 % ga o'sdi (amaldagi narxlarda). Eng katta hajm mobil aloqa xizmatlari (3881,0 mlrd.so'm); ma'lumotlar uzatish tarmog'i, shu jumladan Internet (1808,8 mlrd.so'm); shaharlararo, halqaro telefon aloqasi xizmatlari (911,1 mlrd. so'm) egallaydi.

Faoliyat turlari bo'yicha aloqa xizmatlari


	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatdan tushgan tushum, jami	7168,1	128,5
shu jumladan:		
pochta aloqasi	238,0	121,8
telegraf aloqasi	1,5	109,0
xalqaro, shaharlararo telefon aloqasi	911,1	168,0
mahalliy telefon aloqasi	101,1	108,2
maxsus va feld'egerlik aloqa	8,7	126,8
televidenie dasturlarini uzatish va qabul qilish	109,3	135,3
radio dasturlarini uzatish va qabul qilish	9,5	159,8
radio to'lqinlarni ro'yxatga olish, nazorat va himoya qilish	69,8	126,0
mobil aloqa	3881,0	118,4
ma'lumotlar uzatish tarmog'i, Internetni qo'shgan holda	1808,8	140,1
shu jumladan Internet tarmog'i	1533,3	161,7
boshqa aloqa xizmatlari	29,3	101,7

Faoliyat turlari bo'yicha aloqa xizmatlarining tarkibi,%



Aloqa xizmatlarining umumiy hajmida aholiga ko'rsatilgan xizmatlar ulushi 71,2% ni tashkil etdi. 2017 yilda aholiga ko'rsatilgan aloqa xizmatlari hajmi 5104,7 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2016 yilga nisbatan esa bu ko'rsatkich 25,1% ga (amaldagi narxlarda) oshdi.

Aloqa xizmatlarining dinamikasi, shu jumladan aholiga ko'rsatilgan, mlrd.so'm




Asosiy turlari bo'yicha aholiga ko'rsatilgan aloqa xizmatlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatdan tushgan tushum, jami	5104,7	125,1
shu jumladan:		
pochta aloqasi	44,9	90,7
telegraf aloqasi	0,8	101,0
xalqaro, shaharlararo telefon aloqasi	30,2	100,6
mahalliy telefon aloqasi	64,9	104,2
mobil aloqa	3450,8	120,4
televidenie dasturlari	74,0	148,1
ma'lumotlar uzatish tarmog'i, Internetni qo'shgan holda	1438,7	141,0
shu jumladan Internet tarmog'i	1251,4	163,9
boshqa aloqa xizmatlari	0,4	203,1

Hududlar miqyosida aloqa xizmatlarining umumiy hajmidagi eng katta ulush Toshkent shahri (42,1 %), Samarqand (7,7 %), Farg'ona (7,4 %), Andijon (5,9 %), Namangan (5,4 %), Qashqadaryo (5,2 %) viloyatlari egallagan.

Eng past ulush Sirdaryo (1,9 %), Toshkent (2,5 %), Jizzax (2,5 %), Navoi (2,7 %), Xorazm (3,6 %), Surxondaryo (3,9 %), Buxoro (4,4 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (4,4 %) kuzatildi.

Aloqa xizmatlarining umumiy hajmida hududlar ulushi,%




Respublikada mobil aloqa tarmoqlarining dinamik kengayishi kuzatilmoqda. Agar yaqinda undan faqat so'zlashuvlar uchun foydalanilgan bo'lsa, bugungi kunda bu zamonaviy aloqa turi ommaviy axborot vositalarida dolzarb ma'lumotlarni olish, ma'lumot almashish, moliyaviy bitimlar tuzushni amalga oshirishga yordam bermoqda.

Ayni paytda O'zbekiston bozorida mobil aloqa xizmatlarini "Unitel" MChJ ("Beeline" savdo belgisi), "Universal Mobile Systems" ("UMS" savdo belgisi), "RWC" ("Perfectum Mobile" savdo belgisi), "Coscom" XK MChJ ("Ucell" savdo belgisi) va "UzMobile" filiali "O'zbektelekom" AJ kompaniyalari tomonidan ko'rsatiladi. Mobil aloqa xizmatlari CDMA, GSM-900, GSM-1800, UMTS 2100, 4G LTE standartlarida takdim etiladi. Mobil aloqa operatorlari tomonidan mobil aloqa foydalanuvchilari uchun

qo'shimcha, hususan, mobil internet, SMS-informer, internet-banking va boshqa xizmatlarni faol ravishda taqdim etmoqda.


Mobil aloqa xizmatlari dinamikasi



2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ko'llab-quvvatlash yili" deb belgilandi. Strategiyani amalga oshirish bo'yicha Davlat dasturiga muvofiq joriy yilda iqtisodiyotni rivojlantirish va faol tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida - faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni joriy qilish nazarda tutilgan. Innovatsion g'oya va texnologiyalarni, faol tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, birinchi navbatda zamonaviy ishlab chiqarishlarni joriy etishga qaratilgan; fan va innovatsion faoliyatni jadal rivojlanishi uchun zarur

shart-sharoitlarni yaratish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini barqaror o'sishiga va aholi turmush darajasi va farovonligini oshirishga ko'maklashadi.


Mobil telefon apparatlar va Internet tarmog`iga ulangan aholini ta'minlanganligi, %



Shuningdek, ilg`or g`oyalar, aqlli texnologiyalar va nou-xauga asoslangan innovatsion rivojlanishning yangi modeliga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilmokda.


Bugungi kunda zamonaviy insonning hayotini internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yaqin kelajakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig`iga binoan, 2018 yilda Internetga ulanish tezligi kamida to'rt martaga oshirish uni 2020 yilgacha MDH mamlakatlari darajasiga etkazish, shuningdek internet tarmog`iga chiqish narxini pasaytirish rejalashtirilgan.

Xizmatlar hajmi va Internet tarmog`iga ulangan abonentlar soni



2017 yilda yuridik shaxslar Veb-saytlari soni umumiy Internet tarmog`i Veb-saytlar (8029 bir.) soniga nisbatan 83,3 % ni tashkil etadi. Jismoniy shaxslar Veb-saytlarining ulushi 16,7 % ni tashkil etdi.

Operatorlar (provayderlar) tarmog`ida joylashgan Veb - saytlar soni, birlik



Innovatsiyalar televidenie sohasida keng joriy etilmokda, hususan, bu raqamli televidenie. Raqamli televideniyaning asosiy xususiyati tasvir sifati. Uzatish va qabul qilish jarayonlarida raqamli signallarni qayta ishlash, yuqori sifatga erishishga imkon berdi. Respublika rahbariyatining tashabbusi bilan raqamli teleeshittirishlarga o'tish konsepsiyasi va dasturi ishlab chiqildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida er usti analog teleeshittirishlarni bosqichma-bosqich to'xtatish jadvali tasdiqlandi, unga ko'ra 2018 yil 15iyuldan Toshkent shahrida va 2018 yil 5 dekabrgacha butun O'zbekistonda er usti analog teleeshittirishlar o'chiriladi.

Bugungi kunda axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalari sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, ta'lim, davlat xizmatlari va turizm sohaslariga bosqichma-bosqich joriy qilinmokda. Viloyatlarda "aqlli" va "xavfsiz" shaharlar yaratish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilmokda.

Hususan, tarmoqli axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim sohasining yangi istiqbollarini ochib berdi. Zamonoviy ta'lim usullari va axborot texnologiyalarining birlashtirilishi yangi integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarini hususan, Internet-texnologiyalari asosida shakllantirish imkonini berdi. Masofaviy ta'lim elektron o'quv qo'llanmalari yordamida olingan nazariyani mustahkamlash uchun qo'shimcha ma'lumotlarni deyarli

har qanday joydan yuklab olish, bajarilgan vazifani uzatish, o'qituvchi bilan maslahatlashish imkoniyatini o'z ichiga oladi.

Aholi salomatligini mustahkamlash bo'yicha islohotlarni amalga oshirish, sog'likni saqlash xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish maqsadida, Respublika elektron tibbiy xizmatlarni rivojlantirish markazi "UzMedInfo" tomonidan, "Sog'liqni saqlash" axborot tizimi majmui (milliy integrallashgan sog'likni saqlash axborot tizimi) yaratildi. 2017 yil avgust oyidan boshlab, Internet tarmog'i orqali yagona elektron ro'yxatga olish va shifokor qabuliga yozilish avtomatlashtirilgan axborot tizimi "Elektron poliklinika" (AIS) ish boshladi. Bugungi kunda Toshkent shahri va ayrim hududlardagi ko'plab oilaviy poliklinikalarda markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratildi, ambulator karta va kasallik tarixi elektron tizimi yo'lga ko'yilgan.

Tijorat banklarining biznes jarayonlarida AKT innovatsion dasturlarni ishlab chiqish moliyaviy operatsiyalarni yanada samarali boshqarish, mijozlarni ushlab turish, bank xodimlarining faoliyatini optimallashtirish va bo'limlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Zamonaviy avtomatlashtirish tizimlari barcha so'rovlarni qanday qilib qabul qilinganligiga qaramasdan, telefon orqali, chatda, bank saytidagi shakl orqali, shaxsiy tashrif bilanmi, bir-biri bilan bog'lashi mumkin.

Bugungi kunda Toshkentda shahar yo'lovchi tashish transportining joylashuvini kuzatish uchun elektron ilova mavjud, bu yo'lovchilarga to'xtash joyini va vaqtini hisoblash imkonini beradi. Bundan tashqari, buyurtma bo'yicha avtomobil transportida yuklarni tashish xizmatlari, shaharlararo va halqaro avtobuslar qatnovlari biletlari buyurtmasi va elektron bron qilish tizimi bo'yicha mahsus mobil ilovalar ishlab chiqilmokda.

Joriy yilda umum foydalanuvchi shahar yo'lovchi transportida va metropolitenda, taksidan tashqari avtomatlashtirilgan yo'lkirani hisobotga olish va to'lash tizimi (ASOP) joriy etish rejalashtirilgan. Tizimning ishlashi

uchun barcha transport turlari uchun yagona transport kartalari yaratiladi. O'z navbatida, ular bir nechta turlarga bo'linadi: standart va imtiyozli (pensionerlarga, bepul yurish huquqiga ega bo'lganlar, talabalar va o'quvchilar). ASOP to'lovlarni qabul qilish uchun tizimni "Uzkard" to'lov tizimi bilan integratsiya qilish kerak. Bajarilgan operatsiyadan komissiya, pul o'tkazmasining miqdoridan 0,1 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etadi.

Raqamli ma'lumotlarni uzatish va Internetga kirish texnologiyalarini jadal rivojlantirish, aloqa xizmatlarining innovatsion turlarini kengaytirish va raqobatni kuchayishi zamonaviy AKT xizmatlari bozori belgilaydi.

Kelgusida keng polosali optik tarmoqlarni kengaytirish va optik- tolali aloqa liniyalarini qurish bo'yicha ishlarni davom ettirish, mamlakat bo'ylab EDVO, 3G va 4G LTE baza stansiyalarini o'rnatishni rejalashtirilmokda. Axborot-ma'lumotnoma markazlari xizmatlari, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash, shuningdek, ko'pincha ishlatiladigan ma'lumotlarni saqlash (keshlash markazlari), korporativ sektorga multimedia xizmatlarini ko'rsatish uchun studiyalar yaratish ko'zda tutilgan.

Ushbu islohotlar zarur, chunki halq farovonligini oshirish va mamlakatning iqtisodiy o'sishi uchun muhim omil sifatida, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri aloqa infratuzilmasini rivojlantirish hisoblanadi.